



ANCIENT SOGD HERDSMEN

Eshberdi Sultanov

senior lecturer

Oriental University
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Eshberdisultanov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Sogd, Sak, Scythian, herdsman, farm, Massagets, tombs, nomadic herdsmen, semi-nomadic herdsmen, settled herdsmen.

Received: 17.11.24

Accepted: 19.11.24

Published: 21.11.24

Abstract: The article discusses the territories, origin and history of Sakas, one of the ancient herding tribes. An attempt was made to prove the opinion that their economy was based on several types of animal husbandry, settled, semi-nomadic and nomadic, that they spoke the Turkic (ancient Turkic) language, and that they also existed in the ancient Sogd territories.

QADIMGI SO‘G‘D CHORVADORLARI

Eshberdi Sultanov

katta o‘qituvchi

Oriental universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: Eshberdisultanov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: So‘g‘d, sak, skif, chorvador, xo‘jalik, massagetlar, qabr-qo‘rg‘onlar, ko‘chmanchi charvodorlar, yarim ko‘chmanchi chorvodorlar, o‘troq chorvodorlar.

Annotatsiya: Maqolada qadimiy chorvador qabilalardan biri saklarning yashagan hududlari, kelib chiqishi va tarixi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ularning xo‘jaligi chorvachilikning bir necha turlari o‘troq, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchilikka asoslanganligini, turkiy (qadimgi turk) tilida gapirganligini hamda ularning qadimgi So‘g‘d hududlarida ham mavjud bo‘lganligi haqidagi fikrlarni isbotlashga harakat qilingan.

ДРЕВНИЕ СОГДИЙСКИЕ ПАСТУХИ

Эшберди Султанов
старший преподаватель
Oriental университет
Ташкент, Узбекистан
E-mail: Eshberdisultanov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Согд, Сак, Скиф, скотоводство, хозяйство, массагеты, курганные-могилы, кочевники-скотоводы, полукочевые скотоводы, оседлые скотоводы.

Аннотация: В статье рассматриваются территории, происхождение и история саков – одного из древних скотоводческих племен. Была предпринята попытка доказать мнение, что их экономика основывалась на нескольких видах животноводства, оседлом, полукочевом и кочевом, говорили на тюркском (древнетюркском) языке и существовали также на древних согдийских территориях.

Kirish. Qadimgi davrda chorvador xalqlarning turmush tarzi, ularning moddiy madaniyati ilmiy jamiyatlar uchun juda qiziqarli bo‘lib, hozirgacha tinimsiz tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning hayoti to‘g‘risida juda kam va ayrim jihatlarigina yozma manbalarda saqlanib qolgan. Ayniqsa, ularning qaysi tilda gapirganligi haqidagi fikrlar juda xilma-xil bo‘lib, hozircha bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Shuning uchun ham qadimiy xalqlardan biri saklar to‘g‘risida ilmiy jamoatchilik o‘rtasida tinimsiz bahs-munozaralar olib borilmoqda. Maqolada qadimgi chorvador aholi qabilalaridan biri saklarning yashagan hududlari to‘g‘risida ayrim mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi chorvador qabilalardan skif, sak va massagetlar haqidagi dastlabki ma’lumotlar zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da, Doro I ning Behustun yozuvlarida, yunon-rim tarixchilar Geradot, Dioniskiy Periget, Klavdiy Ptolomey, Strabon asarlarida ma’lumotlar uchraydi.

XIX asrdayoq chorvador etnoslardan biri saklarni V.V. Grigoryev “Skif xalqi Saklar haqida” nomli asarida ta’riflab o‘tgan. Albatta u skif va sak qabilalarini o‘rganishda antik davr tarixchilar ma’lumotlariga tayangan. Farg‘ona va Pomir tog‘larida yashagan sak qabilalari qabr-qo‘rg‘onlarini o‘rgangan B.A. Litvinskiy qimmatli fikrlar yozib qoldirgan. Shu bilan birga, ularning qaysi tilda gapirishi masalasida xatolikka yo‘l qo‘yan deb hisoblaymiz.

A.A. Raimkulov o‘zining Katta Sug‘d – Sugdiyona. Tarixiy jarayonlar chorrhasidagi o‘lka nomli asarida qadimgi So‘g‘d hududining shimoliy chegarasi Nurota tog‘larining shimoliy etaklari bilan nihoyasiga yetishini isbotlagan. Yunon-Rim tarixchilar tarixchilar asarlarida saklar yashagan yurt Yaksartdan shimolda deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, arxeologiya tadqiqotlari buning aksini

ko'rsatmoqda. Ya'ni hozirgi Nurota tog' tizmasidagi Oqtog' va Qoratog' o'rtasida, ularning barcha joylarida sak qabr-qorg'onlari uchraydi. Demakki, qadimgi So'g'd bilan chegara hududlarda emas, balki So'g'dning katta hududlarida sak qabilalari yashagan.

X.A. Abushiy "Turkiy qavmlar tarixi" asarida skiflarni turkiylarning qadimgi ajdodlari deb ko'rsatgan. Yunon-rim tarixchilari skiflar va saklar bir xalq sifatida ta'riflaganligini hisobga olsak, sak qabilalari turkey tilde gaplashgan bo'lib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil kabi usullar yordamida O'zbekiston hududida qadimiylar aholining shakllanishi va tarqalgan hududlari tarixiy tahlilga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Chorvachilik xo'jaligi bronza davrida dehqonchilikdan ajralib chiqishi bilan alohida ixtisoslashgan soha sifatida o'z rivojlanish yo'liga ega bo'ldi. Keyinchalik u bir necha tarmoqlarga bo'linadi: 1. Ko'chmanchi charvodorlar. 2. Yarim ko'chmanchi chorvadorlar. 3. O'troq chorvadorlar.

Ko'chmanchi chorvadorlar odatda yangi sero't yaylovlardan izlab ko'chib yurishgan. Shuning uchun ular turli fasllarda o'zlarini uchun qulay joylarga chorva mollarini haydab boqishgan. Ular asosan bepayon cho'l va dasht hududlarida yashashgan.

Yarim ko'chmanchi chorvadorlar ko'klam, yoz va kuzning o'rtalarigacha bo'lgan davrda sero't yaylovlarga, ko'pincha tog'li hududlarga, chorvani haydab chiqishadi. Sovuq tushishi bilan cho'ponlar chorvani olib "qishlov"larga qaytishadi. Bu yerda ular qishni o'tkazishadi. "Qishlov" bu – qish o'tkaziladigan joy ma'nosini beradi. Aynan shu so'zdan qishloq so'zi kelib chiqqan. O'zbek tilining izohli lug'atida "qishlov" so'zi shunday tariflanadi: 1. Qishlamoq. 2. Chorva mollarining qishlab qolgan yerida boquvi, boquv jarayoni. 3. Kishilar yoki chorva mollar qishlaydigan, qishda yashaydigan joy [8].

Otroq chorvadorlar odatda bir joyda muqim yashashgan. Ular chorvalarini o'zlarini yashab turgan qishloqlar atrofidagi yaylovlarda boqishgan. Shu bilan birga, ular chorvachilik bilan birga qo'shimcha xo'jalik sifatida dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanishgan.

Saklar Markaziy Osiyoning qadimiylaridan biri bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda ularni ko'chmanchi aholi sifatida tariflanadi. Lekin ba'zi olimlar tomonidan ularning o'troq turmush tarziga o'tganligi haqida fikrlari bor. B. A. Litvinskiy saklarni ma'lum bir qismi o'troqlikka o'tganligi haqida ta'kidlagan [5]. Shuningdek, V.V. Grigoryev ham saklarning bir qismi o'troq yashaganligini aytib o'tgan [4]. Ularning fikricha, saklarning bir qismi antik yoki undan oldingi davrlarda o'troq hayotga o'tgan.

Saklar qadimgi yozma manbalarda, xususan, zardushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto”da, Doro I ning Behustun yozuvlarida tilga olinadi. Behustun yozuvida saklar uch guruhga bo‘lib ko‘rsatilgan: 1. Saka-xamuvarga (xaumavarga saklari), 2. Saka-tigraxauda (cho‘qqi qalpoqli saklar) 3. Saka-tiaytarad-raya (Yaksart orti saklari). Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida ham saklar haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Geradot, Dioniskiy Periget, Klavdiy Ptolomey, Strabon asarlarida saklar haqida turli fikrlar bayon qilingan. Dioniskiy Periget, Klavdiy Ptolomey, Strabonlar saklarni so‘g‘diylar bilan yonma-yon yashagan deb, ular o‘rtasidagi chegara Yaksart daryosi bo‘ylab o‘tgan deb ko‘rsatgan. Ammo, hozirgi kunga qadar qadimgi So‘g‘d hududlaridan, ya’ni Nurota tog‘ tizmalaridan ko‘plab saklarning qabr qo‘rg‘onlari topib o‘rganilgan [9]. Shu bilan birga, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Orol dengizi atrofida, Pomir va Tyanshan (Tangritog‘) tog‘lari hududidan saklarga tegishli mozor-qo‘rg‘onlar topilgan [1, 89-90]. Shu o‘rinda aytish mumkinki, arxeolog A.A. Raimqulov So‘g‘d hududining chegarasini janubda Hisor tog‘laridagi Temir darvoza bilan, shimolda esa Nurota tog‘ tizmasining shimolidagi Temirqovuq qishlog‘i yaqinidagi tor dara Temir dorvoza bilan belgilagan [6].

Saklarning qaysi tilda so‘zlashganligi tarixchilar tomonidan baxs-munozaraga sabab bo‘lgan masaladir. Ularning ayrimlari saklarni fors tilida so‘zlashgan deyishsa, ayrimlari esa turkiy (turk) tilda so‘zlashishini, uchunchi guruhi esa yarmi fors, yarmi turkiy tilda so‘zlashishini aytishadi. Fikrimizcha, bitta xalqning ikki tilda gaplashishi mantiqsizlikdir. To‘g‘ri, so‘g‘dliklar bilan yonma-yon yashagan saklar ularning tilini yaxshi bilishi tabiiy hol, lekin ularning o‘z tili bo‘lganligi va unda so‘zlashganligi ham haqiqatdir. Ularning ayrim guruhlari o‘troqlashish jarayonida so‘g‘dliklarga yoki boshqa etnik guruhlarga assimliatsiya bo‘lgani ham tarixiy jarayonlarda doimiy takrorlanib turadigan hodisalardan hisoblanadi. Bu hodisa, ayniqsa Zarafshon vohasida tez-tez ro‘y berib turadi. Qadimda turli bosqinlar natijasida bu yerga kelib qolgan etnik guruhlar mahalliy aholiga qorishib ketganligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Forslar, yunonlar, arablarning mahalliy aholiga singib ketishi shunday jarayonlardan hisoblanadi. Masalan, arablar hozirgi kunda o‘z tillarini butunlay unitib, o‘zbek tilida so‘zlashishadi.

Saklar hoh ular ko‘chmanchi, hoh o‘troq bo‘lishin o‘z madaniyati, urf-odatlari bo‘lgan. Shu o‘rinda ular ishlatgan yozuv ham bo‘lganligi haqida ko‘plab dalillar mavjud. Saklarga oid yozuvlarning eng ko‘p topilgan hudud bu – Turfondir.

Sak tilida yoritilgan eng qadimgi manba – bu Olmaota atrofida Issiq qo‘rg‘onida topilgan kumush idishdagi yozuvdir. U milloddan avvalgi V asr bilan sanaladi [7]. Yozuvning bo‘lishi, albatta uning qay darajada keng tarqaganligi bizga noma’lum, ammo madaniy jihatdan qo‘sni xalqlar bilan teng darajaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Saklar, massagetlar va skiflar ayrim tarixchilar tomonidan bir xalq deb qarovchilar ko‘p uchraydi. Masalan, Geradot “saklar skiflarning o‘zginasi, aynan skif qabilasi bo‘lib, forslar barcha

skiflarni saklar deb ataganlar [3, 302-303]” deb fikr bildirgan. Balki Geradotning mana shu fiklariga tayangan holda ham bo‘lishi mumkin, tarixchi X.A. Abushiy skiflarni “iskif” deb atab, ularni turkiy xalqlardan ekanligini ta’kidlagan [2, 41].

Sak, skif, massaget qabilalarining Qora dengiz bo‘ylaridan to Issiqko‘l hududlarigacha bo‘lgan hududlarda yashaganligini hisobga olinsa, kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo‘lgan etnik guruhlar bo‘lganligi ular yaratgan moddiy madaniyatda ham aks etadi.

Xulosa. Shunday qilib, saklar qadimgi chorvador qabilalar bo‘lib, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Pomir tog‘laridan Qora dengizning shimoliy hududlarigacha bo‘lgan bepayon dasht, cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashashgan. Ular ushbu juda katta hududda o‘z nomoddiy va moddiy madaniyatini yaratishganki, ularning ba’zilari bizgacha yetib kelgan. Bizgacha yetib kelgan manbalar orqali ularning kundalik turmush tarsi, mehnat va qurol-aslahalari hamda yozuvlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев У. Ўрта Осиё сакларига оид тарихий-этнографик маълумотлар (манба ва адабиётлар тахлили). Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th March, 2023, 89-90 page.
2. Абуший Х.А. Туркий қавмлар тарихи.-Т.: “Чўлпон”, 1995, 41-бет.
3. Герадот. История в девяти книгах. Книга IV, – М. – Л.: “Наука”, 1972, стр. 302-303.
4. Григорьев В.В. О скифскомъ народъ сакахъ. Санктпетербургъ, 1871.
5. Литвинский Б.А. Древние кочевники «крыши мира». «Наука», Москва, 1972.
6. Раимкулов А.А. Катта Суғд – Сугдиёна. Тарихий жараёнлар чоррҳасидаги ўлка. “IQTISOD-MOLIYA”, Тошкент, 2017.
7. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. “Ўқитувчи”, Тошкент, 1996, 14-bet.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “К” ҳарфи. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, Тошкент, 315-бет. www.ziyouz.com kutubxonasi.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк обьектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги 846-сонли қарори.